

Qattiq po'stli yoki oddiy qovoq (C.pepo H.) Shimoliy Amerikadan, yirik mevali qovoq (C.maxima Duch.) Janubiy Amerikadan, muskat qovoq (C.moschata Duch.) Markaziy Amerikadan kelib chiqqanligini polizshunos olim V.Belik yozib qoldirgan.

Hozirgi davrda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirish va sohaga innovasion texnologiyalarni joriy qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Keying yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ko'paymoqda va aholini hamda yekspert yehtiyojini qoplash masalalariga katta ye'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va sohani ozuqa bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga yega.

Chorva mollarini ozuqasini to'liq rasion bilan ta'minlashda yem-xashak yekinlarini yetishtirish va ularni imkoniyatlaridan to'liq foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi. Bu borada hosildorligi va ozuqaviyligi yuqori bo'lgan poliz yekinlari alohida o'rin tutadi. Biroq, mamlakatimizda poliz yekinlaridan yem-xashak yekini sifatida uning imkoniyatlaridan foydalanishning salmog'i juda kam.

Yem-xashak yetishtirishda yirik mevali qovoq turlari istiqbolli yekin hisoblanib, ushbu yekin mevasi yirik shoxli chorva, cho'chqa, parranda, quyon uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qovoqni yirik shoxli chorva ozuqasi rasioniga kiritish uni sut mahsuldorligini 5-12% ga, quyonlarni junini sifatini va sut sifatini oshirishi aniqlangan. Ayniqsa cho'chqachilikda xashaki qovoq muhim ahamiyatga yega. Cho'chqa oziqa rasioniga xashaki qovoqni kiritish uning tirik vaznini sutkasiga 500-800 g ga oshirishi aniqlangan (L.I.Podobed, 2018.)

Xulosa qilib aytganda qovoq sabzavotlar ichida yeng foydali va xushta'm bo'lib, bizning hududimizda qadimdan yetishtirilib iste'mol qililib kelinmoqda. Qovoq uzoq saqlanadigan meva bo'lib, uni yil mobaynida iste'mol qilish imkoniyati bor. Uning bu xususiyatidan aholini uzluksiz sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashda foydalanish mumkin. Chorvachilikda xashaki qovoqni oziqa rasionida salmog'i, kg/sut/yil: Yirik shoxli hayvon – 16; cho'chqachilik -15; quyonchilik – 4; qo'ychilik – 0.16

ADABIYOTLAR:

1. Дунин А.П., Трос В.Б. Влияние схем посева и минеральных удобрений на урожайность тыквы крупноплодный // Сборник статей Международной научно-практической конференции «Проблемы и тенденции научных исследований в системе образования». Тюмен, 2019. С. 106-109.
2. Трос В.Б., Дунин А.П., Трос С.В. Влияние схем посева на развитие растений и урожайность тыква // Аграрная Россия. 2020. №1 С. 44-48.
3. Основы научных исследований в плодоводстве, овощеводстве и виноградарстве / В.Ф. Моисейченко и др. М.Колос, 1994. 381 с.
4. Ахмедов О. Сроки и густота посева тыквы. // Картофель и овощи. 1984 №11 С. 38.
5. Гейдарлы К.Б. Изучение схем и сроков посева крупноплодный, мускатной и твердокорой тыквы // Пути интенсификации производства плодов, винограда и овощей в Азербайджанской Сб.статей. Кировабад, 1989 С. 49-59.
6. Лебедева А.Т. Тыквенные культуры. М. Росселхозиздат, 1987. 80 с.
7. Луцис Т.Е. Тыквенные: тыква, кабачки, патиссоны, арбуз, дыня. М.Книжный дом, 2001. 80 с.
8. Sanches Conde M.P. Respuesta de la planta de calabacin (C.pepo) ante difer-yentes dicide nitrogeno o de potasio // Agrochimica. 1988. 32. № 2 – 3. S. 108-118.
9. Swiader J.M., Sullivan J.G., Freji F. Nitrate monitoring for pumpkin production on dryland and irrigate soils // J. Am. Soc. Hortic. Sc. 1998. – 113. – 5 –p. 684-689.118

UO'T: 635.62(575.1)

INQIROZGA UCHRAGAN YANTOQZORLARNI TUBDAN YAXSHILASH TEXNOLOGIYASI

Mavlanov Xudargan, biologiya fanlari doktori, professor,
Qodirova Sayyora Qarshibayevna, katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annotatsiya. Chorva mollarini zo'riqtirib boqish va yaylovlardan tartibsiz foydalanish oqibatida inqirozga uchragan yantoqzorlarni, cho'l va yarim cho'l chorvasini, yem-hashak bazasini tubdan yaxshilash shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ishning maqsadi kam hosilli siyraklashgan tabiiy yantoqzor jamoasini hosildor yem-hashak o'simliklarini ekish usuli bilan yaxshilash va uning hosildorligini 5-10 marotaba oshirish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: Agrofitorosenoz, yantoq, Alhagi, inqiroz, bioxilma-xillik, cho'l, antropogen, gemikserofit, adaptatsiya, texnogen.

Аннотация. Одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня является коренное улучшение янтакчиков, пустынного и полупустынного животноводства, кормовой базы, находящейся в деградации из-за напряженного кормления животных и нерегулярного использования пастбищ. Цель работы состоит из создания технологии повышения урожайности в 5-10 раз сообщество малопродуктивных изреженных естественных янтакчиков путем подсева продуктивных кормовых растений.

Ключевые слова: агрофитоценоз, янтак, Alhagi, деградация, биоразнообразие, пустыня, антропогенный, гемиксерофит, адаптация, техногенный.

Abstract. One of the pressing issues of today is the radical improvement of yantak plants, desert and semi-desert livestock breeding, and the food supply, which is degraded due to intense feeding of animals and irregular use of pastures. The goal of the work is to create a technology for increasing the yield by 5-10 times of a community of low-productivity thinned natural yantak plants by reseeding productive forage plants.

Key words: agrophytocinosis, yantak, *Alhagi*, degradation, biodiversity, desert, anthropogenic, hemixerophyte, adaptation, technogenic.

Kirish. O'zbekistonning 80 % ga yaqin hududi cho'llardan iborat bo'lib, asosan 400 metrgacha dengiz sathidan balandlikda joylashgan [1, 6-7]. Cho'lining asosiy qismidan chorva mollari uchun yaylov sifatida foydalaniladi. O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy rentabellik sohasi bo'lib kelgan.

Qadimda cho'l chorvachiligi kam harajatli va iqtisodiy samarali soha bo'lib hisoblangan, lekin keyingi davrlardagi e'tiborsizlik, tartibsiz foydalanish, surunkali zo'riqtirib mol boqish natijasida yaylovlarning katta maydonlari kam hosilli bo'lib, tanazzulga yuz tutmoqda. Shu kunda respublikamizda 10 million gektar (yer) yaylov yaxshilashga muhtoj ekanligi buning yorqin misolidir.

Yaylovlarning to'yimli ozuqabop o'simlik turlarini o'rinni chorva mollari uchun yeyilmaydigan va yomon yeyiladigan o'simliklar egallamoqda, ba'zi turlar yo'qolib ketish holatiga kelib qolmoqda.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Ishda o'simliklarning antogenezi o'rganishda O.V.Smironova va b. (1976), T.A.Rabotnov (1983) metodlaridan foydalanildi. O'simlik tuplari soni dinamikasi va populyatsiyalarning yosh spektrlari 25 m² maydonda belgilangan individlarda Rabotnov (1985) metodi bilan olib borildi.

Fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar I.N.Beydeman (1960), yer osti organlarini o'rganish S.G.Golovchenko (1969) metodikasi yordamida olib borildi. Inqirozlashgan yantoqzorlarni tubdan yaxshilashda 25-28 sm chuqurlikda yerni haydab, urug' ekish, shu singari klassik geobotanik va agronomiya usullaridan foydalanildi.

Natijalar. XXI asr yer yuzida yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, cho'llanish, yer degradatsiyasi, suv tanqisligi va boshqa xavf-xatarlar bizning o'z kelajagimizga talofat yetkazayotganimizni aniq va ravshan ko'rsatmoqda. Bu holat davom etsa, sayyoramiz uchun xavfli oqibatlar olib kelishi muqarrar [2, 1-3].

Shu kunda bioxilma-xillikni saqlash butun dunyo davlatlari (sayyoramiz) oldida turgan va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biriga aylanib ulgurdi.

Shu qaror va farmonlardan kelib chiqib, respublikamizda inqirozga uchrayotgan yaylov va pichanzorlarni baholash, o'simlik turlarini inventarizatsiya qilish, mahalliy istiqbolli yem-hashak o'simliklarini aniqlash, ularni ko'paytirish, hosildorlik ishlarini amalga oshirish, qayta tiklash, serhosil ko'p yillik agrofittosenozlar yaratish va bu borada kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun qishloq xo'jaligi olimlari va amaliyotchilari oldida cho'l va yarimcho'l yaylovlarni yaxshilashning qullay yo'llarini topish, hosildorlikni oshirish, inqirozlanish va cho'llanishga chidamli bo'lgan istiqbolli turlarni topish kabi muammolar turibdi. Floramizning har bir o'simlik turi o'ziga xos o'ringa va foydali xususiyatga ega. Respublikamiz tabobat olamining ko'plab turlari qimmatli yem-hashak va qimmatli xomashyo hisoblanadi. Shundaylardan biri yantoq o'simligidir. Yantoq turlari sayyoramizning ko'pchilik davlatlarida keng tarqalgan bo'lib O'zbekistonda uning to'rtta turi uchraydi:

1. *Alhagi, canescens* Regel, V. Keller, Shap.
2. *Alhagi, kirghisorum* Schrenk.
3. *Alhagi pseudalhagi* M.Bieb Desv., V. Keller, Shap.
4. *Alhagi persarum* Boiss.

Yantoq turlari ichida ozuqalik sifati bo'yicha *Alhagi pseudalhagi*

soxta yantoq turi qadri hisoblanadi [4, 51-53]. Yashil massasi uning 12 dan 100 sentnergacha quruq hashagi esa gektariga 6 dan 40 sentnergacha bo'lishi mumkin. Lekin bizning kuzatishlarimiz tabiatda uning hosildorligi kritik holatga tushayotganligini, ya'ni 1,5-5 sentner quruq massa berishini ko'rsatdi. Aks holda inqirozga uchramagan sharoitdagi yantoqzorlar 5-10 sentner hosil bermoqda. Siyraklashgan, kam hosillashgan yantoqzorlarning hosilini va tup sonini oshirish maqsadida Nurota va Forish tumanlarining yantoqzorlarida amaliy tajriba ishlarini olib bordik. Buning uchun tanazzulga tushgan yantoqzorlar 25-28 sm chuqurlikda haydab, ustiga izen o'simligining urug'i ekildi. Izlen sho'radoshlar oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik, serhosil yem-hashak o'simligi hisoblanadi. "*Kochia prostrata*" tajribamizning birinchi yili haydalgan yantoqzorlarda 8-12 ta aborigen tur o'simliklar hosil bo'lib, ularning o'simlik qoplami 5 % dan oshmadi. Shunday qilib, ekilgan izen va yantoq nihollariga aborigen o'simliklar tomonidan raqobat sezilarsiz bo'ldi. 2-3-yil vegetatsiyada aborigen tur o'simliklari soni 25-31 taga yetdi. Bir yilliklardan *Eremopyrum orientalis*, *Bromus danthoniae* jadallik bilan ko'payishi natijasida o'simlik qoplami 26 % ga yetdi. Keyingi yillardan (3-4 yil) ko'p yillik o'simliklar (*Artimisia diffusa*) ko'paya boshladi. Shunday qilib, biz izenli-soxtayantoqli-efemerli agrofittosenozni yaratishga muvofiq bo'ldik. Bu uslubda yaratilgan agrofittosenozlarning ijobiy tomonlari quydagilardan iborat:

- yer haydab (25-28 sm), tuproq namligi yaxshilangani uchun birinchi yildan boshlab pichan olish mumkin. Birinchi yil tabiiy yantoq bilan ekilgan izen o'simligi orasida raqobat bo'lmaydi, sababi haydalgan yantoqlar bir yarim ikki oydan keyin yer ustiga chiqib boshlaydi. Bu davrda izen nihollarining bo'yi 15-20 sm ga, ildizi esa 30-45 sm ga yetgan bo'ladi. Yantoqning ildiz tizimi kuchli rivojlangani uchun suvga va oziq-ovqatga nisbatan ekilgan o'simlikka raqobatlik qilmaydi.

Yantoq asosan vegetativ ko'payganligi sababli ildizining kesilishi uning regeneratsiya holatini kuchaytirib, tuplar sonining 30-50 % ga ko'payishiga olib keladi. Ekilgan izen maysalarining unib chiqishi martning birinchi, ikkinchi dekadalarida kuzatiladi. Birinchi yil vegetatsiyasining oxirida izenning bo'yi 30-61 sm ni tashkil qilib, 27 % generativ fazaga va keyingi ikkinchi yili esa 100 % generativ fazaga kirdi. Generativ poyalarning o'sishi gullash fazasigacha intensiv davom etdi. Izenning yillik o'sishi keyingi yillardan 62,1-106,1 sm ni tashkil etdi. Yantoqning agrofittosenozidagi o'sish tempi nazoratga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Agrofittosenozda 50,9-77,2 sm gacha nazoratda 42,1-49,0 sm gacha unib chiqqan izen maysalari soni bir yil vegetatsiyada ko'proq nobud bo'lgan bo'lsa, 2-3-yildan boshlab uning soni stabilashib bordi. 3-yil vegetatsiya oxirida tabiiy yantoqning soni gektariga 12,4 dan 26,4 mingga yetdi.

Shunday qilib izenli-soxtayantoqli-efemerli agrofittosenozda izen ozod ekologik qoplarni (nishani) egallab, yantoqqa salbiy ta'sir qilmaydi, o'z navbatida yantoq ham izen o'simligiga ta'sir qilmaydi. Yaratilgan agrofittosenoz qalin o'simliklar qoplamini hosil qilishi bilan nazorat maydonidan farq qildi.

Agrofittosenoz yaratilgan yil izenning urug' hosildorligi 35 kg bir gektarni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillar generativ

poyalarining ko'payishi hisobiga urug' hosildorligi 2,2 sentner gektarga yetdi.

Yaratilgan agrofitotsenozning birinchi yilida yantoqning hosildorligi 10,9 sentnerni, izenniki esa 5,9 sentnerni tashkil qildi. Keyingi 4-5 vegetatsiya yillarida izenning hosildorligi ancha yuqori bo'lib, 20,5-25,6 sentnerni tashkil qildi.

Xulosa. Qilingan ish bo'yicha olingan xulosalar siyraklashgan, kam hosillik yantoqzorlar o'rnida serhosil ko'p yillik yem-hashak bo'lgan izen o'simligini ekish usuli bilan yaratilgan agrofitotsenozlarning har tomonlama iqtisodiy, amaliy, xo'jalik va ekologik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Biz tavsiya etgan inqirozlashgan (yaylovlarni) yantoqzorlarni tubdan yaxshilash texnologiyasi (usullari) amaliy jihatdan kam harajatli tez va oson bajariladigan ish hisoblanadi. Buning uchun inqirozlashgan yantoq maydonlari aniqlanadi va noyabr oylarida 25-28 sm chuqurlikda haydaladi. Dekabr oyi oxiri va yanvar

oylarida izen urug'i ekiladi. Ekilish usuli qo'l sochma yoki maxsus cho'l o'simliklari urug'ini ekish uchun mo'ljallangan seyalkalardan foydalaniladi. Urug' sifati va unuvchanligiga qarab 1 gektar maydonga 3-4 kg dan 7-9 kg gacha izen ekilishi tavsiya etiladi. Bu usul bilan yaratilgan agrofitotsenozlardan cho'l va yarimcho'l hududlarida pichanzor sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi bunday cho'l hududlarida pichan beradigan yaylovlar deyarli yo'q. Shuning uchun bizning tavsiyamiz (texnologiyamiz) bilan yaratilgan izen va yantoqdan tashkil topgan ikki a'zoli bo'lgan agrofitotsenozlar cho'l hududidagi asosiy, yagona bo'lgan pichanzor hisoblanib, qishki qirovli-qorli kunlarda cho'l chorva mollarini yem-hashak bilan ta'minlashda qo'llanishi mumkin bo'lgan ishonchli manba hisoblanadi.

Shu usul bilan yaratilgan ikki va ko'p a'zoli agrofitotsenozlardan uzoq muddat (20-25 yil) to'yimli, serhosil yaylov va pichanzor sifatida samarali foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining yer fondi (2020-yil, 1-yanvar holati) Toshkent, yer GEODEZ KADASTR davlat qo'mitasi, 2020.
2. Madumarov T.A. O'simliklar bioxilma-xilligini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish davr talabi // "O'simliklarning hayotiy strategiyalari va reproduksiya jarayoni" mavzusidagi respublika ilmiy konfransiyasi materiallari to'plami. – Guliston, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xilligini saqlash milliy strategiya va harakatlar rejas. - T., 1998.
4. Mavlanov X., Qodirova S. Yantoqning biologiyasi va xo'jalikdagi ahamiyati // Xorazm Ma'mun akademasi axborotnomasi. 2020-yil, 9-son.

UO'T: 633.18/631.17

TURLI SUV ME'YORLARIDA O'STIRILGAN SHOLI (*ORYZA SATIVA*) O'SIMLIGI POYASINI BALANLIGIGA VA QURUQ MASSASIGA TA'SIRI

Xojamkulova Yulduzoy Jaxonkulovna,

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi laboratoriyasi mudiri.

Annotatsiya. Maqolada turli suv qalinligida o'stirilgan sholi o'simligi poyasini balanligiga va quruq massasiga ta'siri mum pishish davrida "Ilgor" navida 20 sm li suv qalinligida quruq massa tuplanish darajasi yuqori natija ko'rsatganligi aniqlandi. "UzROS 7-13", 15 sm li suv qalinligi eng maqbul variant ekanligi kuzatildi. Quruq massa to'planishi bo'yicha olingan natijalarda 15 sm li suv qalinligi sholini eng maqbul variant ekanligi aniqlanganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nav, sholi, suv qalinligi, rivojlanish davrlari, poya.

Аннотация. В статье установлено влияние на высоту стебля и сухую массу растений риса, выращенных в разной толщине воды, что сорт "Илгор" имел высокую скорость накопления сухой массы при толщине воды 20 см в период воскового созревания. Было отмечено, что оптимальным вариантом является "УзРОС 7-13", толщина воды 15 см. По результатам накопления сухой массы установлено, что наиболее оптимальным вариантом является рис с толщиной воды 15 см.

Ключевые слова: сорт, рис, водная толща, сроки развития, стебель.

Abstract. In the article, the effect on the stem height and dry mass of rice plants grown in different water thicknesses was found that the "Ilgor" cultivar had a high dry mass accumulation rate at a water thickness of 20 cm during wax ripening. It was observed that "UzROS 7-13", 15 cm water thickness is the optimal option. In the results of dry mass accumulation, it is stated that rice with a water thickness of 15 cm is the most optimal option.

Key words: variety, rice, water thickness, development periods, stem.

Kirish. L.M. Kostalevala va N.V. Frantsevalarning ma'lumotlarida sholini o'simlik bo'yi miqdoriy belgilardan biri hosildorlikni ta'minlash va yotib qolishga chidamli bo'lgan past bo'yli navlar tanlanadi. Seleksioner olimlar nuqtai nazarida past bo'ylik muhim agronomik belgi bo'lib, u yotib qolishga chidamlilik bilan to'g'ri korrelyatsion bog'liqlikka ega va bunday navlarga

yuqori miqdordagi mineral o'g'itlarni o'zlashtirish qobiliyati yuqori bo'ladi [1].

T.Kuliyevning fikricha bunday salbiy oqibatlar davom etib, sho'rlanish suv taqchilligi doimiy muammo bo'lib qolishini ta'kidlab o'tgan. Ana shu og'ir sharoitlarga mos sholi navlarini tanlash, yetishtirish va mamlakatimizning sholi ta'minotini